

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHIDA
FARMATSEVIKA SOHASINING TUTGAN O'RNI VA UNDAGI
SOLIQA TORTISH BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLAR**

Voxidov Bobir Abdug'affor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

tel: 90 827-65-15;

e-mail: boburvoxiidov10@gmail.com

"Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko'lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O'zbekiston davrini boshlab berdi.

Bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit paydo bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.¹

O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan makroiqtisodiy siyosati barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlardan biri 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobarga oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun aholi jon boshiga YIM hajmini 4 ming AQSH dollaridan oshirish hisoblanadi.²

Bunday dinamik o'sish sharoitida har bir sohada o'ziga o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol. Jumladan ijtimoiy soha hisoblangan farmatsevtika sohasi ham so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Hozirgi kunga kelib sohada sezilarli o'zgarishlar bo'ldi.

O'zbekiston farmatsevtika bozori bugungi kunda mintaqada eng tez o'sish dinamikasiga ega va bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Avvalo, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni ortib borayotganini ko'rmoqdamiz. Hozir sanoatda 200 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatib, ulardan 85 tasi dori vositalari, 120 dan ortig'i tibbiyot buyumlari va asbob-uskunalar ishlab

¹ <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-mamlakatimizda-olib-borilayotgan-jadal-va-keng-kolamli-islohotlar-yurti>

² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi "Budjetnoma 2025-2027" 15 bet
www.tadqiqotlar.uz

chiqaradi.

Dunyoning 27 davlatiga mahsulot yetkazib berayotgan O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ining eksport hajmi olti yil avvalgiga nisbatan 5 barobar o'sganini ko'rsatdi

Rejaga ko'ra, 2026 yilgacha respublikada oltita yangi korxonalar ochilishi kerak. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 280 million dollarni tashkil etadi va bugungi kunda davlat tomonidan ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tomonidan ushbu muammoni hal qilish uchun barcha zarur choralar ko'rilmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki sohada rivojlanish yuqori bosqichga chiqib bormoqda. O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining rivojlanishi butun O'zbekiston iqtisodiyotining iqtisodiy tiklanishi bilan birga kechadi. Soliq qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, bojxona qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar, shuningdek, bir necha yillar davomida ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratish farmatsevtika sohasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun esa biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, farmatsevtika sanoati O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi. **Hozir respublikada yiliga 1,6 milliard dollarlik 1,5 ming turdagi farmatsevtika mahsulotlari iste'mol qilinmoqda.** Mamlakatga import hajmi qariyb 1,2 milliard dollarni tashkil etadi.

Bu haqida mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 12-aprel 2022 yildagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishda ham takidlab o'tdilar.³


Hozirgi kunga kelib mahalliy ishlab chiqaruvchilarga beriladigan imtiyozlarning bekor qilinishi natijasida farmatsevtika mahsulotlari narxlarining oshishi kuzatildi, biroq endi qo'shilgan qiymat solig'i zanjiri to'liq bo'lsa keyingi yillarda korxonalar xarajatlari kamayishi va bu sohada soliq yuki tushishi kutilmoqda.

Albatta soliq tushumlari ham yildan yilga oshib bormoqda. Buni bevosita soliq organlari bergan ma'lumotlar asosida ham ko'rish mumkin

³ <https://president.uz/oz/lists/view/5124>
www.tadqiqotlar.uz

1-rasm

2024-yil yanvar-oktyabr oylarida savdo sohasida eng ko'p soliq to'lagan TOP-20 korxonalar



Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki Top-20 soliq to'lovchilardan 11 va 12 o'ringa aynan farmatsevtika sohasi vakillari turibdi.

Jumladan,

“GRAND PHARM TRADE” MCHJ tovara aylanmasi mazkur davrda – 4 trln 513 mlrd 700 mln so'm bo'lgan va undan 80 mlrd 100 mln so'm soliq to'langanligi va 143 mlrd 200 mln so'm soliq imtiyozi qo'llaganligi


“MEROS PHARM” MCHJ esa tovar aylanmasi - 3 trln 809 mlrd 700 mln so'mga yetgani va bundan 73 mlrd so'm soliq to'langanligi va 118 mlrd 300 mln so'm soliq imtiyozi qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin

Bundan ko'rinib turibdiki davlat bu sohaga bir qator imtiyozlar bergani va buning natijasida mazkur soha vakillari soliq bo'yicha TOP-20 korxonalar qatoriga

kirgani sohada ishlar to'g'ri yo'lda ekanligini anglatadi.


2-rasm

2024 yilgi avgust oyida xarid cheklari soliq mobil ilovasi orqali eng ko'p ro'yxatdan o'tkazilgan TOP-20 korxonona



Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda NKM lar orqali cheklarni mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazish va qo'shilgan qiymat solig'idan 1% keshbek qaytralishi amaliyoti juda yaxshi ketmoqda. Farmatsevtika sohasida faoliyat yuritayotgan dorixonalar tarmoqlari ham bu masalada yetakchi orinlarda bormoqda. Jumladan, "GRAND PHARM TRADE" MCHJ dorixonalar tarmog'i 144 ming 100 ta dona chekdan umumiy qiymati 171 mln 700 ming so'mlik keshbek qaytarilgan. "NIKA FARM SERVIS" MCHJ dorixonalar tarmog'i mazkur ro'yxatda 16 o'rinda turibdi va umumiy soni 112 ming 700 dona cheklardan umumiy qiymati 111 mln 500 ming so'm keshbek qaytarilgan. Mazkur raqamlar albatta sohani rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatib kelajakda yanada kattaroq tovar aylanmalari bo'lishini prognoz bermoqda.

**2022-yil 12-apreldagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish masalalari
bo'yicha yig'ilishdan ma'lumot.**



Mazkur rasmdan ko'rinib turibdiki. Deyarli 75% yoki 1.2 mlrd.dollarlik farmasevtika mahsulotlari chetdan import qilinmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish hajmi 25% yoki qariyb 400 mln.dollarni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatda asosiy e'tiborni mahalliy ishlab chiqarishga qaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yig'ilishda mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish vazifasi qo'ydilar.

Yig'ilishda shu borada boshlangan ishlar, tarmoqdagi loyihalar holati tanqidiy tahlil qilindi.

Hududlar kesimida olganda, mahalliy lashtirish darajasi mutlaqo qoniqarsiz. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida iste'mol qilinadigan dorining atigi 2-5 foizi mahalliy ishlab chiqaruvchilar hissasiga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda mazkur sohani rivojlanish natijasida soliqqa tortish masalasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lmoqda.

2023-yil 15-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.⁴

QQS bo'yicha ayrim imtiyozlar bekor qilindi va ular quyidagilardir:

Quyidagilar bo'yicha savdo aylanmasi QQSga tortiladi

tibbiy xizmatlar;

veterinariya
xizmatlari;

dori vositalari;

veterinariya dori
vositalari, tibbiyot va
veterinariya uchun
mo'ljallangan
buyumlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagilar QQSga tortiladi:

- dori vositalari,
- veterinariya dori vositalari,
- tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar,
- shuningdek qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan

⁴ <https://lex.uz/docs/6718864>
www.tadqiqotlar.uz

xomashyo.

Mazkur hujjat 2024-yil 1-apreldan kuchga kirdi va soliq imtiyozi bekor qilindi. Hozirgi kunda farmatsevtika sohasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'laqonli zanjir shakllangan bo'lib, soliq yuki keying yillarda tushishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholi salomatligi bilan bo'g'liq sohaga davlat tomonidan e'tibor hozirgi kunda yuqori darajaga yetgan. Bu esa xalqimizning ushbu sohaga bo'lgan ishonchini yanada oshirib, kelajakda ushbu sohani rivojlanishiga ham o'z hissalarini qo'shishga olib keladi.

Yaqin yillarda o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli va hamyonbop narxdagi farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish, tadbirkorlarga ham iste'molchilarga ham sifatli hayot kechirishiga birdek yordam bergan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi "Budjetnoma 2025-2027" 15 bet
2. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-mamlakatimizda-olib-borilayotgan-jadal-va-keng-kolamli-islohotlar-yurti>
3. <https://president.uz/oz/lists/view/5124>
4. <https://uz.kursiv.media/2023-10-06/farmaczevtika-prevrashhaetsya-v-ekonomicheskij-drajver-uzbekistana>
5. <https://www.statista.com/outlook/hmo/otc-pharmaceuticals/Uzbekistan>
6. <https://uzpharmagency.uz/>
7. <https://lex.uz/docs/6718864>